

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.M.Karimov	
A.Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanining inglizcha tarjimalarida leksik- stilistik bo‘yoqdorlikni saqlash tamoyillari	125
A.A.Shernazarov, X.J.Jamolova	
“Boburnoma”dagi forscha baytlarning mualliflari	129
M.B.Rajabova	
Alisher Navoiy ijodida marsiya va lavhalar	133
G.S.Qurbonova	
Nurali Qobul ijodida ayol ruhiyati tasviri	140
M.K.Mirzoyev	
Farzona Xo‘jandiy she‘rlarida motam marosimining badiiy ifodasi	145
M.A.Jo‘rayeva	
Cho‘lponning “Vayronalar orasida” asari janr xususiyatlari	149
L.A.Masharipova	
O‘zbekimning go‘zal urf-odatları	154

TILSHUNOSLIK

M.Y.Mamajonov, Z.A.Mirzamatova	
Diplomatik munosabatlar ramz va turlarining tasniflari	158
Z.Sh.Pazilova	
O‘zbek va nemis tillarida to‘y bilan bog‘liq leksik birliklar	163
M.Y.Xusaynova	
O‘zbek va ingliz tillarida paxta leksemasining lingvomadaniyatda aks etishi	168
M.M.Mamajanova	
Ingliz tili grammatikasining retseptiv ko‘nikmalarini o‘rgatish	172
N.A.Xoshimova, M.R.Nematjonova	
Tarjimada realiyalar masalasi	176
X.M.Maripova	
Frazeologik birliklarning lingvokulturologiya bilan bog‘liqligi	179
N.A.Mansurova	
Tilshunoslikda terminologiya masalalari	183
M.R.Komilova	
O‘zbek tilshunosligida o‘zlashma leksemalarning o‘rganilishi tarixi.....	187
J.X.Djamolov	
O‘zbek tilining davlat tili maqomiga erishish jarayoni	192
Sh.T.Yusupova	
Lingvistik interferensiya hodisasining mohiyati xususida	197
M.O.Batirxanova	
Somatik frazeologik birliklar tadqiqida “Madaniy kodlar”	201
G.X.Saydullayeva, O.P.Uralova	
“TikTok” ijtimoiy tarmoq izohlarida xorijiy so‘zlarning izohlarda ishlatilishi.....	203
M.M.Nurmatova, M.O.Oripova	
Nutqiy etiketni shakllantirishda madaniyat va ijtimoiy omillarning o‘rni.....	206

MATEMATIKA

A.K.Yusupova, B.Qurbonov	
Ba‘zi biologik jarayonlarni differensial tenglamalar yordamida o‘rganish	209
O‘.U.Ismailov	
Atoqli otlar nazariyasi va semantikasi.....	214

FIZIKA– TEXNIKA

E.X.Bozorov, M.A.Abdullayeva	
Oliy ta‘lim muassasalarida “radiatsiya xavfsizligi” fanini o‘qitishda interfaol metoddan foydalanish	218

**A.QODIRIYNING “O‘TKAN KUNLAR” ROMANINING INGLIZCHA TARJIMALARIDA
LEKSIK- STILISTIK BO‘YOQDORLIKNI SAQLASH TAMOYILLARI**

**ПРИНЦИПЫ СОХРАНЕНИЯ ЛЕКСИКО-СТИЛИСТИЧЕСКОЙ ОКРАСКИ В АНГЛИЙСКИХ
ПЕРЕВОДАХ РОМАНА А. КАДИРИ «МИНУВШИЕ ДНИ».**

**KEEPING PRINCIPLES OF LEXICAL-STYLISTIC COLORING IN ENGLISH TRANSLATIONS
OF THE NOVEL "BYGONE DAYS" BY A. KADIRI**

Karimov Ma'rufjon Mamirjonovich¹

¹Karimov Ma'rufjon Mamirjonovich

– Namangan muhandislik-texnologiya instituti Chet tillar kafedrasida tayanch doktoranti.

Annotatsiya

Maqoladan ko'zlangan maqsad quyidagilardan iborat, A.Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanining inglizcha tarjimalarida leksik-stilistik bo'yoqdorlikni saqlash muammolarini yoritish; o'zbek tilidan ingliz tiliga qilingan tarjimalarga bag'ishlangan ilmiy ishlarda tavsiflangan badiiy tarjimaning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish va konnotativ ma'noga ega leksik birliklarning tarjima qilish usullarini belgilash; "O'tkan kunlar" romanida qo'llangan frazeologik birliklarning stilistik xususiyatlarini tarjima matnida qayta aks ettirish yo'llarini aniqlash.

Аннотация

Целью данной статьи является - выяснение проблем сохранения лексико-стилистической окраски в английских переводах романа «Минувшие дни»; Анализ особенностей художественного перевода, описанных в научных работах по переводам с узбекского на английский язык, и определение способов перевода лексических единиц с коннотативным значением; Определить способы повторного отражения в переводном тексте стилистических особенностей фразеологизмов, употребленных в романе «Минувшие дни».

Abstract

The aim of the article is to clarify the keeping problems of lexical-stylistic coloring in English translations of the novel "The Days Gone By"; Analysis of the specific features of artistic translation described in scientific works on translations from Uzbek to English and determination of methods of translation of lexical units with connotative meaning; To determine the ways of re-reflecting the stylistic features of the phraseological units used in the novel "The Days Gone By" in the translated text.

Kalit so'zlar: lingvistika, metafora, metonimiya, stilistik usul, muvofiq, og'ir gap, qiyin taqdir, voqe'an, turmush, otilgan o'q, nozik masala, nikoh, tabiatiga tushmoq, murakkab taqdir, bu dunyodagi, ahamiyat/muhimlik, kostyum, afzallik, boshqaruv masalalaridagi ahamiyat, o'xshashlik, o'sish, xarajat, savdo.

Ключевые слова: лингвистика, метафора, метонимия, стилистический прием, уместное, сложное предложение, трудная судьба, событие, брак, выстрел, деликатный вопрос, брак, соответствовать вашей природе, трудная судьба, деликатное дело, в этом мире, важность, костюм, предпочтение, в вопросах управления, равнозначно, увеличить, расход, торговля.

Key words: linguistics, metaphor, metonymy, stylistic device, appropriate, complex sentence, difficult fate, event, marriage, shot, delicate issue, marriage, coincidence of your nature, difficult fate, delicate matter, in this world, danger, costume, choice, falling out management, equivalently, increase, expense, trade.

KIRISH

Badiiy matnda turli xil voqea-hodisalar, predmetlar, asar qahramonlarni tasvirlashda stilistika juda muhim hisoblanadi. Ma'lumki, dunyo tilshunosligida stilistikaning obykti hisoblangan stilistik usullarga fonografik stilistik usullar, sintaktik stilistik usullar, leksik-stilistik usullar kiritiladi. Bugungi kunda mazkur stilistik usullarni tadqiq qilish kognitiv lingvistika, lingvomadaniyatshunoslik, antropolingvistika, pragmalolingvistika, psixolingvistika, sotsiololingvistika kabi sohalarida ham katta qiziqish bilan o'rganilib kelinmoqda. Ma'lumki, so'zlar asl ma'nosidan tashqari ko'chma ma'noni ham anglatadi. So'zlar ko'chma ma'noda qo'llanganda predmet-hodisalarni atabgina qolmay, o'sha predmet va hodisalarni tasvirlash vazifasini ham bajaradi. Ko'chma ma'no tildagi so'zlarning to'g'ri ma'nosi negizida vujudga keladi. Ko'chma ma'noli so'zlar ilmiy va rasmiy uslubdan tashqari barcha uslublarda qo'llaniladi. So'zlarning ko'chma ma'nosi faqat kontekstda reallashadi. Nom ko'chishi asosida yangi ma'no hosil bo'lishi barcha mutaxassislar tomonidan e'tirof etilsada, lekin nom ko'chishiga olib keluvchi hodisalar, ularning turi masalasidagi qarashlar turlichadir. Ba'zi

adabiyotlarda nom ko'chishiga olib keladigan hodisaning ikki turi ko'rsatilsa, ayrim adabiyotlarda bunday hodisalarning undan ko'p turlari ko'rsatiladi. Lingvistik adabiyotlarning ko'pchiligida esa (ayniqsa, keyingi vaqtlarda nashr etilgan adabiyotlarda) nom ko'chishiga olib keluvchi hodisaning to'rt turi keltiriladi: metafora, metonimiya, sinekdoxa va vazifadoshlik. Biz ushbu maqolada taniqli adib, O'zbek romanchilik maktabi asoschisi Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida qo'llanilgan metafora, sinekdoxa, o'xshatish, kinoya tasviriy vositalarining ayrimlarini tahlil qilishga harakat qilamiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Badiiy tarjimaning lingvistik va ekstralingvistik muammolariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlari yurtimiz va xorij olimlari tomonidan olib borilgan. Mamlakatimizda badiiy matndagi tasviriy vositalar, stilistik sinonimlar, frazeologik birliklarning berilishi, olam milliy manzarasining milliy-madaniy xususiyatlari, badiiy tarjimaning lingvokul'turologik va lingvostilistik xususiyatlariga oid tadqiqotlar Q. Musaev, D. Xoshimova, A. Sharipova, R. Shirinova, Z. Teshaboeva, U. Yo'ldoshev, M. Xolbekovlarning ishlarida amalga oshirilgan,

Xorijda badiiy tarjimaning o'ziga xos muammolari, badiiy matndagi konnotativ ma'nolarni tarjimada qayta aks ettirish masalalari bo'yicha J. Vinay, J. Dalbarnet, P. Skave, K. Liu, X. Zhang, P. Krings, Ye. Gentzler, A. Barselona kabi olimlar izlanishlar olib borishgan.

Tahlil qilib chiqilgan ishlardan farqli o'laroq, bizning tadqiqot ishimizda sinekdoxa, metafora, o'xshatish leksik-stilistik vositalar va frazeologik birliklarning asl badiiy matnda qo'llanish xususiyatlari va ularning tarjimada berilish usullari, ushbu lisoniy birliklarni tarjima qilish strategiyalari hamda ikki xil tarjima nusxalarini qiyoslash asosida tarjima qilish texnologiyasi tizimlashtiriladi.

"O'tkan kunlar" romanidan keltirilgan quyidagi parchalarga e'tibor qaratsak,

Asliyat matni: *Manimcha, uylanishdek nozik bir ish dunyoda yo'qdir, - dedi Rahmat va Otabekka yuz o'girdi. - Uylangach, xotining tab'ingga muvofiq kelsa bu juda yaxshi; yo'qsa, munchalik og'ir gap dunyoda bo'lmas.* (O'tkan kunlar/ Abdulla Qodiriy 10 b.)

I.To'xtasinov, O.Mo'minov, A.Hamidov tarjimasida: *"There is not any other delicate issue in the world like "marriage" - Rakhmat said turning his face to Otabek. - "If the wife you married matches your nature, it is good, if not - there is no more difficult fortune in the world!"* (The Days Gone By p.10_I.M.Tukhtasinov, O.M. Muminov, A.A. Khamidov)

Kerol Yermakova tarjimasida: *"In my opinion, marriage is the most delicate matter in this world," said Rakhmat. Turning to Atabek, he went on: "Once married, it is of the utmost importance that the wife should suit the husband's nature. Otherwise, there is no more troublesome task in the whole wide world."* (Days Gone By p.15_Carol Ermakova)

Ushbu matnda metafora leksik-stilistik usuli "ulyanishdek nozik ish" va "og'ir gap" birikmalarida qo'llangan. "Uylanishdek nozik bir ish" birikmasi aslida "turmush qurishga jiddiy e'tibor qaratish", "yetti o'lchab bir kesish", "kichik bir xato butun umrga tatigulik tashvishga aylanishi mumkin bo'lgan amal" kabi ma'nolarda qo'llanilmoqda. "Og'ir gap" birikmasi esa, yuqorida ta'kidlab o'tilgan "butun umrga tatigulik tashvish" ma'nosida qo'llanilmoqda.

I.To'xtasinov, O.Mo'minov, A.Hamidov tarjimasida "ulyanishdek nozik bir ish" metaforik ko'chma ma'no *"delicate issue in the world like "marriage"* tarzida qo'llangan.

Kerol Yermakova esa *"marriage is the most delicate matter in this world"* tarzida tarjima qilgan. Ikki tarjimada ham metaforik ko'chma ma'noga ega birikma so'zma-so'z tarjima usuli orqali o'g'irilib, tarjima matnida ham metaforik ko'chma ma'noni aks ettirgan. Biroq, tarjimonlar I.To'xtasinov, O.Mo'minov, A.Hamidov tarjimasida asliyatdagi o'xshatishli metoforik birikma tarjima matnida ham aks ettirilgan.

"Og'ir gap" metaforik birikmasi esa I.Tuxtasinov, O.Mo'minov, A.Hamidovlar tomonidan *"difficult fortune - qiyin taqdir"* deb o'g'irilgan bo'lsa, Kerol Yermakova ushbu birikmani *"troublesome task- muammoli vazifa"* deb tarjima qilgan. Bu yerda fikrimizcha, I.To'xtasinov, O.Mo'minov, A.Hamidovlar tarjimasida asliyat matnidek metaforik ko'chma ma'no aks etgan. Chunki real voqe'likda qiyin ish, vazifa tushunchalari mavjud, biroq qiyin taqdir qo'shimcha konnotativ ma'no hosil qiladi.

Asliyat matni: — *Voqi'an, siz meni eslay olmassiz, — dedi. — Men Toshkandda qutidorlik qilg'an vaqtimda siz taxminan besh-olti yoshliq bola edingiz... Go'yoki, men Toshkandda kechagina turg'andek va kechagina sizning havlingizda mehmon bo'lg'andekman... Ammo, haqiqatda, oradan*

ADABIYOTSHUNOSLIK

o'n besh-yigirma yil o'tib, siz ham katta yigit bo'lgansiz, umr — otilg'an o'q emish. (O'tkan kunlar/ Abdulla Qodiriy 15b.)

I.To'xtasinov, O.Mo'minov, A.Hamidov tarjimasida: *“Really you cannot remember me”, - He said, “When I was a Qutidor in Tashkent, you were about five or six years of age... But it seems like this happened quite recently, as if only yesterday I was a guest in your house... In fact, fifteen or twenty years have passed, and you've already become a grown up, young man. It turns out that life flows like water.”* (The Days Gone By p.15_I.M.Tukhtasinov, O.M. Muminov, A.A. Khamidov)

Kerol Yermakova: *“Ah, of course, how could you remember me?!” he remarked. “When I was trading in Tashkent you would not have been more than five or six... It seems so recent, as though I were a guest at your home just yesterday evening... But indeed, fifteen or twenty years have slipped by since then, and you are already a full grown young man. Life piles past like an arrow from a bow, it would seem!”* (Days Gone By p.18_Carol Ermakova)

Ushbu matnda esa **vazifadoshlik** leksik-stilistik usuli “umr otilg'an o'q” birikmasida qo'llangan bo'lib, bu tasviriy ifoda vositasi aslida “bizga berilgan hayot juda qisqa ekanligi”, “go'yoki kamondan otilgan yoy tezda mo'ljalga yetib borishi” yoki “marraga ham yeib bormasdan yerga qulashi” kabi ma'nolarni ifodalamoqda.

I.To'xtasinov, O.Mo'minov, A.Hamidov tarjimasida “umr otilg'an o'q” ko'chma ma'noli birikma “life flows like water” tarzida qo'llangan.

Kerol Yermakova esa “Life piles past like an arrow from a bow” tarzida qo'llagan. O'zbek tarjimonlari tomonidan matn adekvat (umrning tez sarf etilishi go'yoki suvning oqishi kabi shiddatli ekani nazarda tutilmoqda) suvdek tez usulida, ingliz tarjimoni tomonidan esa so'zma-so'z tarjima usulida o'girilgan. Tarjimonlar I.To'xtasinov, O.Mo'minov, A.Hamidov tarjimasida asliyatdagi o'xshatishli birikma tarjima matnida ham aks ettirilgan va matnning jarangdorligini saqlanishiga xizmat qilgan.

Asliyat matni: Bu ikki firqa bizning nazarimizda bir-birisidan mumtoz, idora ishida biri-biridan ortiqroq xalqlar emasdir. Shunga binoan Turkiston xalqlarining istiqbollarini bu ikki firqaning bittasiga havola qilish baayni (Baayni- ajratib bo'lmaydigan darajada o'xshash, aynan, huddi o'zi) **qo'yni bo'riga topshirish** qabilida bo'ladi. Nega desangiz, har ikki tomonning ish boshig'a intilgan kishilarining ko'krigiga qo'l solib ko'rsangiz, birisining faqat el talamoq, boyliq ortdirmoqqag'ina bo'lg'an g'arazini, ikkinchisining ko'rkli xotinlar, yuqori turmushlar uchun bo'lg'an maqsadinig'ina ko'rib, ikki oradan “elni tinchitay, el ham rohat-tirikchilik qilsin” degan uchinchi bir oliy maqsadni **charog' yoqib axtarsangiz ham topolmassiz.** (O'tkan kunlar/ Abdulla Qodiriy 82 b.)

I.To'xtasinov, O.Mo'minov, A.Hamidov tarjimasida: These two sides are not better from each other. So it isn't a good idea to give the future of Turkistan to one of those sides. It is like giving a sheep to the wolf because if you are going to know their aim, one of them is going to be rich and second one wants to get a beautiful life and women. There is no one who wants to give “peace and good life to the nation”. The third one: you can't find even with the candle in the day time. (The Days Gone By p.79_I.M.Tukhtasinov, O.M. Muminov, A.A. Khamidov)

Kerol Yermakova tarjimasida: We believe one cannot show preference for one or the other; in matters of governance, neither side acts better or worse. To bind the future of Turkestan to only one of these sides is tantamount to handing sheep into the care of wolves. Why, you ask? Well, because on both sides there are those who strive for power and are governed by one thing alone: greed. Some seek to increase their riches at the expense of ruining the people; others dream of a luxurious life and, of beautiful women. In truth those who follow the great goal of bringing the people peace and prosperity are as rare as hen's teeth. (Days Gone By p.76_Carol Ermakova)

Yuqorida keltirilgan parchada, **o'xshatish** leksik-stilistik usuli “**qo'yni bo'riga topshirish**” birikmasida qo'llangan bo'lib, bu tasviriy ifoda vositasi aslida “yirtqich go'shtxo'rga yovvosh qo'yni, ya'ni go'shtni berish”, “bir hamla bilan yeb bitirish” yoki “qiyinchiliklarsiz qulatish” kabi ma'nolarni ifodalamoqda.

I.To'xtasinov, O.Mo'minov, A.Hamidov tarjimasida “qo'yni bo'riga topshirish” ko'chma ma'noli birikmasi “giving a sheep to the wolf” tarzida qo'llangan.

Kerol Yermakova esa “handing sheep into the care of wolves” tarzida qo'llagan. Ikki tarjimada ham **o'xshatish** ifoda vositasi qo'llangan birikma so'zma-so'z tarjima usuli orqali o'girilib, tarjima matnida ham o'xshatishli ko'chma ma'noni aks ettirgan. Biroq, yozuvchi nazarda tutgan

“Turkiston xalqlarini ikki firqaga topshirmaslik” undovidagi rahbarlikka intilgan kishilarning ko‘pligini inobatga olsak, Kerol Yermakova tarjimasidagi “care of wolves” o‘xshatishli birikmasi ko‘plik usulida aks ettirilishi tarjima va aslyiat matni mutanosib ekanligini ifodalanoqda.

USLUB

Tadqiqot materiallari asosan aslyiat tili sifatida ingliz tilida va tarjima tili sifatida rus va o‘zbek tillarida mavjud. Ushbu tadqiqotni yozish jarayonida tarjimada so‘z tanlash mahoratini belgilashda so‘z va ifoda vositalarini ingliz hamda o‘zbek tarjimonlari tomonidan qilingan tarjima ekvivalentlarini solishtirishda qiyoslash, tavsiflash usullaridan foydalanildi.

NATIJA

Ma'lumki, “O‘tkan kunlar” romanida frazeologik birliklardan nihoyatda unumli foydalanilgan. Frazeologik birliklar ham o‘zida qo‘shimcha konnotativ ma‘no hosil qiladigan leksik birliklar hisoblanadi. “O‘tkan kunlar” romani tarjimalarini (o‘zbek va ingliz tilidagi matnlarni) qiyosiy o‘rganish tahlili jarayonida o‘zbek va ingliz tillaridagi frazeologik birliklarning bir-biriga to‘liq va qisman ekvivalent bo‘la olishini kuzatdik. Frazeologik birliklarning o‘zaro bir-biriga mos ekvivalenti topilmaganda, so‘zma-so‘z tarjima, analog tarjima, tasviriy tarjima usullaridan foydalanilganligining guvohi bo‘lish mumkin.

XULOSA

Ma'lumki, “O‘tkan kunlar” romanida frazeologik birliklardan nihoyatda unumli foydalanilgan. Frazeologik birliklar ham o‘zida qo‘shimcha konnotativ ma‘no hosil qiladigan leksik birliklar hisoblanadi. “O‘tkan kunlar” romani tarjimalarini (o‘zbek va ingliz tilidagi matnlarni) qiyosiy o‘rganish tahlili jarayonida o‘zbek va ingliz tillaridagi frazeologik birliklarning bir-biriga to‘liq va qisman ekvivalent bo‘la olishini kuzatdik. Frazeologik birliklarning o‘zaro bir-biriga mos ekvivalenti topilmaganda, so‘zma-so‘z tarjima, analog tarjima, tasviriy tarjima usullaridan foydalanilganligining guvohi bo‘lish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. A. Qodiriy. „O‘tkan kunlar” romani “Sharq” nashriyot – matbaa, Toshkent 2013– yil. (Abdulla Kadiri, novel “Days gone by”, “Shark” printing house, Tashkent 2013)
2. R. Qo‘ng‘irov, E. Begmatov, Y. Tojiyev “Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari”. “O‘qituvchi” Toshkent 1992 – yil. (“Speech culture and methodology basics”, R. Kungirov, E. Begmatov, Y. Tadjiyev, Tashkent 1992)
3. A. Qodiriy. „O‘tkan kunlar” romani “Ilm-ziyo” nashriyoti –Toshkent 2019 y. (Abdulla Kadiri, novel “Days gone by”, “Ilm-ziya” publishing house, Tashkent 2019)
4. I.M. Tukhtasinov, O.M. Muminov, A.A. Khamidov “The Days Gone By”_“Mashhur Press” 2017
5. Carol Ermakova “Days Gone By”_Paris ISBN:978-2-36942-787-2: 2018